

Tadbirkorlar qabuli o'tkazildi



Murojaatlar ijrosiga bepisandlik qilgan ayrim rahbarlarga chora ko'rildi.

Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov navbatdagi onlayn formatdagi "Tadbirkorlar qabuli"ni o'tkazdi. Dastlab avvalgi qabullarda ijroga yo'naltirilgan murojaatlarning hal etilishi tahlil qilindi. Yuklangan masalalar ijrosiga sovuqqonlik bilan qarab kelgan mas'ullarning bir guruhiga intizomiy jazo choralarini qo'llash, ma'muriy javobgarlikka tortish, ayrimlarini vazifasidan ozod etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Jumladan, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Surxondaryo hududiy filiali rahbarini ma'muriy javobgarlikka, Markaziy bank boshqarmasi boshlig'i, "Agrobank" va "Mikrokreditbank" viloyat filiali rahbarlarini intizomiy jazoga tortish, shuningdek, Sho'rchi tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining shartnomalar bo'yicha mas'ulini vazifasidan ozod etish masalasini ko'rib chiqish topshirig'i berildi.

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan viloyat hokimligida sanoat korxonalarini energiya resurslari bilan doimiy ta'minlash masalasida 7/24 rejimida ishlovchi shtab faoliyati yo'lga qo'yilganligi va sanoat korxonalari bilan ishonch telefonlari orqali aloqa o'rnatilishi, shtabga jalb qilingan mas'ullar korxonalarning mavjud muammolarini hal etishga ko'maklashishi ma'lum qilindi.

Bugungi qabul davomida hududiy studiyalar orqali 83 nafar tadbirkorning 95 ta murojaati tinglandi. Ko'tarilgan masalalarning 6 tasi qabul davomida ijobiy hal etildi. 89 ta murojaat qo'shimcha o'rganib chiqish va hal etish choralarini ko'rish vazifasi bilan mas'ullarga yo'naltirildi.

"Tadbirkorlar qabuli"da ishtirok etish uchun "Call-tsentr" bilan bog'lanish raqamlari va tartibi bilan bu yerda tanishishingiz mumkin.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)